O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 24 - may 157-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga, Sirdaryo viloyati Xovos tumani hududidan jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida yer uchastkalari ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyuldagi “Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-178-son qarorining 9-bandi ijrosi yuzasidan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, viloyatning vakolatli organlarining xulosalari asosida kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasining 2022-yil 31-oktabrdagi 17-5104-sonli xati orqali viloyat hokimiga qilgan murojaati qanoatlantirilsin hamda viloyatning tegishli tashkilot va korxonalarining ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Xovos tumani hududining tuman hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar yer uchastkalari ilovaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga yer qa’ri noruda foydali qazilmalar karyerlari jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslar va tartibda ajratib berilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (B.Islamov)dan qonunchilikda belgilangan asoslar va tartibda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer qa’ri noruda foydali qazilmalar karyerlari uchun ajratilgan yer uchastkalari chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

Ajratilgan yer uchastkalariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

Ajratilgan yer uchastkalarini belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga yer qa’ridan foydalanish maqsadlari uchun ijara huquqi asosida ajratish so‘ralsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari R.Boboyev, V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Mahmudaliyev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2023 yil 24 maydagi
157-9-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga Sirdaryo viloyati Xovos tumani hududidan yer qa’ri noruda foydali qazilmalar karyerlari uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilayotgan yer uchastkalari to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Tuman nomi	Yer uchastkasi joylashgan MFY nomi	Maqsadi	Ajratilayotgan yer uchastkasi unikal raqami	Ajratilayotgan yer uchastkasi maydoni (ga)
1	Xovos tumani	Karvonsaroy MFY	Noruda foydali qazilmalar karyeri uchun	A1724235022/1	2,1
2	Xovos tumani	Do‘stlik MFY	Noruda foydali qazilmalar karyeri uchun	A1724235003/1	9,2
	Jami				**11,3**